



Zilola ERGASHEVA,
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti o‘qituvchisi
E-mail: zilolaergasheva7092@gmail.com

O‘zDSMI dotsenti, f.f.d G.Isakova taqrizi asosida

“PIGMALION VA GALATEYA” YOXUD MUKAMMAL SAN‘AT ASARI

Annotatsiya

Dunyo tilshunosligida qanotli iboralar tadqiqiga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Qanotli iboralarining kelib chiqish manbalari turlicha bo‘lib, ularning orasida mifologiya alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, san‘atga oid mifologik qanotli iboralarni o‘rganish muhimdir. Quyidagi maqolada qadimgi yunon mifologiyasidan kelib chiqqan “Pygmalion va Galateya” qanotli iborasi haqida so‘z yuritiladi. Uning san‘at va adabiyotga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Tilshunoslik, adabiyot, san‘at, mifologiya, qanotli ibora, haykaltaroshlik, rassomchilik, tahlil.

«ПИГМАЛИОН И ГАЛАТЕЯ» ИЛИ СОВЕРШЕННОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ИСКУССТВА

Аннотация

В мировой лингвистике интерес к изучению крылатых выражений растёт. Источники происхождения крылатых выражений разнообразны, среди которых особое место занимает мифология. Особенно важно изучать мифологические крылатые выражения, связанные с искусством. В данной статье рассматривается крылатое выражение «Пигмалион и Галатея» из древнегреческой мифологии. Анализируется её вклад в искусство и литературу.

Ключевые слова: Лингвистика, литература, искусство, мифология, крылатое выражение, скульптура, живопись, анализ.

“PYGMALION AND GALATEA” OR ABOUT THE PERFECT WORK OF ART

Annotation

Interest in the study of winged expressions in world linguistics is growing. The sources of origin of winged expressions are diverse, among which mythology occupies a special place. It is especially important to study mythological winged expressions related to art. The following article will discuss the winged expressions “Pygmalion and Galatea” from ancient Greek mythology. Its contribution to art and literature will be analyzed.

Key words: Linguistic, literature, art, mythology, winged expression, sculpture, painting, analysis.

Kirish. Jahon tilshunosligida maqol, aforizm, frazeologik birliklar qatorida qanotli iboralar ham nutqimizni ta’sichan va obrazlilikini ta’minlab kelmoqda.

Tilshunoslarning fikriga ko‘ra: “Qanotli iboralar semantik jihatdan yaxlit ma’no anglatuvchi, turg‘un, fikrni obrazli, ta’sirchan va lo‘nda shaklda yetkaza oladigan, ongda qayta in’ikos etuvchanlik hamda biror voqea yoki hodisa bilan assotsiatsiyalanish, muallif yoki manba haqidagi genetik xotiraga egalik xususiyatlari bilan yaqqol ajralib turadi”[1].

Qanotli iboralarining kelib chiqish manbalari turlicha bo‘lib, ularning orasida muqaddas matnlar, mifologiya, antik va badiiy adabiyot, tarix hamda san‘at alohida o‘rin tutadi. Qadimgi afsona va rivoyatlar barcha xalqlar uchun qiziqarli hisoblanadi. Chunki ular o‘zlarining mazmun va mohiyati bilan insonlarning kundalik turmush va faoliyatini obrazli ifodalashda ahamiyatlidir. Jahon tillarida qo‘llanilayotgan ushbu turkum qanotli iboralarining katta qismini yunon mifologiyasidan kelib chiqqan qanotli iboralar tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida qanotli so‘z va iboralarni ilmiy jihatdan o‘rganish ancha keng tus olgan. Rus tilshunosligida qanotli so‘z va iboralar tadqiqining boshlanishi S.V.Maksimov va I.Ye.Timoshenkoning tadqiqotlari bilan bog‘liq[2]. M.I.Mixelson, S.G.Zaymovskiy kabi yirik rus olimlari qanotli so‘zlar tadqiqining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar[3]. Shuningdek, qanotli so‘z va iboralar muammosi N.S.Ashukin, M.G.Ashukina, A.M.Babkin, V.P.Berkov singari tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan[4]. So‘nggi yillarda rus tilshunosligida S.G.Shulejkova shuningdek, O.V.Berkova[5], A.A.Alekseyeva, K.V.Kamenev, Y.G.Karpechenkova,

Ye.D.Goryachevalarning va fransuz tilshunosligi bo‘yicha G.N.Isakovaning[6] olib borgan izlanishlari qanotli so‘z va iboralar tadqiqi ko‘laming kengayganligini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Quyida san‘atga oid qanotli iboralardan biri borasida so‘z yuritiladi. “Pygmalion va Galateya” (lot. Pygmālīōn et Gālātēa) – bu haykaltaroshlikning mukammalligi, sevgi va haykalning jonlanishi haqidagi qadimgi yunon mifologiyasidan kelib chiqqan qanotli iboradir. Qadimgi rim shoiri Ovidiy (mil.av.43–mil.18)ning “Metamorfozalar”[7] (lot. Metamorphoses) dostonida berilishicha, Kipr qirolli Pigmalion iste’dodli haykaltarosh ham bo‘gan ekan. U ayollar orasidan o‘z idealini topa olmaydi, Kipr ayollarining axloqsiz turmush tarzini ko‘rib ulardan hafsalasi pir bo‘ladi va uylanmaslikka qaror qiladi. Pigmalion san‘atga juda mehr qo‘yganligi bois, “Menga san‘atim yetarli”, deb hisoblar ekan. Lekin, ko‘rinadiki, unning bu qarori yaxshi natija bermaydi, uning butun vujudini tasavvuridagi ayol egallab oladi.

Shunday qilib, u bekam-ko‘st, ideal ayol yaratish maqsadida ishga kirishadi va tasavvuridagi haykalni fil suyagidan yaratadi. Gavdani nisbatlari shunchalik mukammal ishlab chiqilgan edi-ki, haqiqiy hayotda hech bir ayol Pigmalion ijodining go‘zalligiga tenglasha olmas edi. Haykal shu qadar chiroyli ishlanganidan, kimdir uni haqiqiy ayol bilan adashtirishi mumkin edi.

Pigmalion o‘z ijodiga juda ham berilib ketadi. U yaratgan Galateya shunchaki go‘zal emas, balki mukammal darajada yaratiladi. Eng muhimi, Kipr ayollaridan farqli o‘laroq, Galateya axloqsizliklardan forig‘ edi.

Pigmalion o'zi yaratgan ushbu haykalga shunchalik mehr qo'yadiki, oxir-oqibat unga oshiq bo'lib qoladi. Albatta, Galateya jonsiz mavjudot edi, lekin bu Pigmalionning unga nisbatan mehrni his qilishiga va unga sevimli ayoli sifatida munosabatda bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi. Bora-bora haykaltarosh Galateyani haqiqiy ayol deb hisoblab, o'zini ishontira boshlaydi.

Haykaltarosh ba'zida uning fil suyagidan ekaniga ishonqiramay qolardi, chunki haykal unga ko'proq haqiqiydek tuyulardi. Uning qalbi, bor vujudi haykalni fil suyagi sifatida qabul qilishdan bosh tortadi, uni erkalaydi, o'padi va go'yo o'pichlari qaytarilayotganini his qilardi. U bilan sevgi haqida gaplashib, uni mehr bilan silaydi. Galateyaning qo'llariga teginganida haykaltaroshda shunchalik haqiqiy taassurot tug'iladiki, u o'zining sabrsiz harakatlari bilan unga zarar yetkazishidan qo'rqadi.

Qolaversa, Pigmalion haykalni chinakam ayol sifatida ko'rib, uni xursand qilish uchun, unga qimmatbaho sovg'alar in'om etadi. Ovidiyning ta'kidlashicha, Galateya yaratilgan, ya'ni kiyimsiz holda yanada chiroyli ko'rinsada, Pigmalion unga kiyimlar kiydiradi, zargarlik buyumlarini taqadi, lekin haykal sovuqligicha qoladi. Haykaltarosh javobsiz sevgi azobidan juda qiynaladi.

Kunlarning birida, Afrodita sharafiga o'tkazilayotgan bayramda Pigmalion ma'budadan yaratgan haykalini jonlantirib berishni so'rashga jur'at eta olmay, haykali kabi rafiqqa berishini iltijo qilib so'raydi. Pigmalionning bu qadar kuchli sevgisidan ta'sirlangan, ishq ma'budasi Afrodita uning iltijosini tushunganligining belgisi sifatida olovni uch marta alangalatadi va Galateyaga jon ato etadi.

Pigmalion uyiga qaytib, Galateyani odatdagiday o'pada. Shu chog' mo'jiza yuz berib, lablar uning o'pichiga javob beradi. Maftun bo'lgan Pigmalion yana o'padi, qo'llari bilan astagina Galateyaning tanasiga teginadi va iliqlikni his qiladi, toshning yumshoq hamda jonli bo'lib qolganini ko'radi. Haykal jonlanib, haqiqiy ayolga aylangan edi.

Shundan so'ng, Pigmalion Galateyaga uylanadi, ma'buda Afroditaning o'zi bu nikohga homiylik qiladi. Ularning ushbu nikohidan bir farzand, Pafos dunyoga keladi, shundan keyin uning sharafiga Kiprdagi Pafos shahri o'z nomini oladi.

Pigmalion va Galateya haqidagi afsona qadimiy san'atning asosiy maqsadlaridan biri – tabiatga taqlid qilish, ya'ni mimesisni mukammal tarzda aks ettiradi. Bu haqiqatga intilish qadimgi davr rassomlari uchun beixtiyor takrorlanuvchi g'oyaga aylanadi. Masalan, qadimgi yunon rassomi Zevksis (mil.avv. 420-380) uzumni shunchalik real tarzda tasvirlaydiki, xatto qushlar ularni cho'qishga harakat qilishadi.

Pigmalion va Galateya afsonasidan real, haqiqiy ayollarning nomukammal dunyosi, Galateyada gavdalangan ideallik, sevgining san'at va hayot, tosh va tana o'rtasidagi chegaralarni yengib o'tish mumkin, degan g'oyalar anglandi.

Ushbu afsona asosida va umuman Galateya (qadimgi yunon mifologiyasida - Nereida) afsonalari haqida ko'plab san'at asarlari yaratilgan. Ayniqsa, rassom va haykaltaroshlar bundan juda ilhomlanganlar. Masalan, 1511-yilda Uyg'onish davri ijodkori, italyan rassomi Rafael Santi "Galateya g'alabasi" nomli portretini freskada tasvirlagan, 1530-yilda italyan rassomi Bronzino tomonidan "Pygmalion va Galateya" mannerizm uslubida yaratilgan. Fransuz rassomlari, jumladan, Jan Batist Vanloo "Galateya g'alabasi" (1684) nomli va Fransua Bushe "Pygmalion va Galateya" (1767) nomli asarlarini rokoko uslubida yaratganlar.

Shuningdek, 1878-yilda ingliz rassomi Edvard Byorn-Djons "Pygmalion va Galateya" portretini chizgan, 1952-yilda esa ispan rassomi, surrealist Salvador Dali afsonaviy qahramonni o'z uslubida, ajoyib tarzda tasvirlagan. Hatto

ispan rassomi Pablo Pikasso ham modernizm uslubida ushbu afsona mavzusida eskizlar yaratgan.

Fransuz haykaltaroshi Etyen Moris Falkone 1763-yilda "Pygmalion va Galateya" nomli mashhur haykalni yaratadi va bu ilk klassitsizmning g'alabasiga aylanadi. 1890-yili fransuz rassomi va haykaltaroshi Jan-Léon Jerom ushbu mavzuga oid haykallar to'plamini yaratadi. Muallif asarida Pigmalion haykalni o'payotgan vaqtda Galateyaning jonlanish lahzasini o'zgacha bir jilo bilan tasvirlab beradi. Shuningdek, italyan haykaltaroshi Paskuale Pomanellining "Galateya" haykali bu yo'nalishda alohida o'rin tutadi.

Pigmalion va Galateya haqidagi afsona adabiyotda ham keng tarqalib, ijodkorlarni ilhomlantirgan. Shunga ko'ra, uning asosida ko'plab asarlar yaratilgan. Masalan, fransuz yozuvchisi Jan-Jak Russo, ispan yozuvchisi Migel de Servantes, ingliz ijodkorlari Uilyam Gilbert, Jorj Bernard Shou, Robert Greyvs kabi ijodkorlar shular jumlasidandir.

Qizig'i shundaki, qadimgi yunon afsonasida ushbu jonlantirilgan haykalning nomi aytilmagan, go'zal qahramonning nomi ilk bora Jan-Jak Russoning 1762-yilda yaratilgan "Pigmalion va Galateya" nomli pyesasida qo'llanilgan. Mazkur hajviy pyesada jonlangan haykal muallif tomonidan Galateya deb nomlanadi va san'atning yaratilishi reallikdan ham muhimroq ahamiyat kasb etishi mumkin, degan jonlantirish g'oyasini ilgari suradi. Ushbu innovatsion talqin madaniyatdagi tirik haykal uchun Galateya nomini mustahkamlaydi va afsonaning klassik versiyasiga aylanadi.

1871-yili yozuvchi va dramaturg Uilyam Gilbertning "Pigmalion va Galateya" nomli 3 aktdan iborat pyesasi yaratiladi. Shu yilning 9-dekabrida pyesa Londondagi Xeymarket teatrida sahnaga qo'yiladi va katta shuhrat qozonadi.

1912-yili ingliz dramaturgi Jorj Bernard Shou tomonidan "Pigmalion" nomli pyesa yaratilgan. Unda fonetika professori gulchi qiz Eliza Dulitni xonimga aylantiradi, ya'ni bunda "Pigmalion effekti", ya'ni kutishlar evaziga odamning o'zgarishi nazarda tutiladi. 1938-yilda Jorj Bernard Shouning mazkur asari Britaniyada ekranlashtirilib, oq-qora tasvirda film yaratiladi. Film ssenariysi Jorj Bernard Shou, Ien Deplimpl, Sesil Lyuislar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, muallifning o'zi filmga bir nechta qo'shimcha sahna va epizodlarni kiritadi. Film rejissyorlari: Entoni Eskvit va Lesli Govard, proyusser – Gabriel Paskal. Filmida bosh rollarni Uendi Xiller va Lesli Govard ijro etishgan. Ushbu film ko'plab mamlakatlarda katta muvaffaqiyat qozonadi va shu yilning o'zida "Eng yaxshi ssenariy" uchun "Oskar" mukofotiga sazovor bo'ladi. Shuningdek, u "Eng yaxshi film", "Eng yaxshi erkak roli" va "Eng yaxshi ayol roli" uchun Kinematografiya san'ati va fanlar Akademiyasi mukofotlariga nomzod bo'ladi. Film o'sha yili Venetsiya kinofestivalida yana bir mukofotni, "Eng yaxshi erkak roli" uchun Volpi kubogiga ega bo'ladi.

Keyinroq, Jorj Bernard Shouning "Pigmalion" pyesasi asosida 1956-yilda ingliz kompozitori Frederik Lou tomonidan "Mening go'zal xonimim" (ing. My Fair Lady) nomli musiqiy asari, ya'ni myuzikli (A.J.Lerner librettosi bilan) yaratilgan.

Frederik Louning myuzikli va Jorj Bernard Shouning "Pigmalion" pyesasi asosida 1964-yilda rejissyor Jorj Kyukor tomonidan "Mening go'zal xonimim" musiqali komediyasi suratga olinadi. Ushbu asar Gollivudning eng yaxshi o'ntaligiga kiritilgan musiqiy komediya filmi hisoblanadi. Tijoriy muvaffaqiyati tufayli film yilning eng ko'p daromad keltirgan ikkinchi filmiga aylanadi va "Eng yaxshi film" va "Eng yaxshi rejissyor" kabi 12 ta nominatsiya bo'yicha sakkizta "Oskar" mukofotiga sazovor bo'ladi. 2018-yilda film "madaniy, tarixiy va estetik jihatdan ahamiyatli"ligi uchun Amerikaning "Milliy kino reystri"ga kiritiladi.

Suningdek, 1977-yilda Bernard Shouning "Pigmalion" pyesasi asosida "Galateya" nomli televizion balet-filmi ham yaratilgan. Ushbu balet-film rus rejissyori Aleksandr Belinskiy va xoreograf Dmitriy Bryansev tomonidan sahnalashtirilgan, musiqasini Frederik Lou va Timur Kogan bastalagan.

Ko'rinadiki, san'atda ushbu syujet faol qo'llanilib kelinmoqda va ko'pincha badiiy asarlarda xuddi Bernard Shouning mashhur pyesasida professor oddiy qizni xonimga aylantirgani kabi, ijod kuchi va idealga ishonish g'oyasini, rangtasvir san'ati va haykaltaroshlikda go'zallikka, o'z ijodiga bo'lgan muhabbatni hamda uni o'zgartirish imkoniyatini tasvirlash uchun qo'llaniladi.

Qadimda yaratilgan ushbu afsona san'at ahli, dramaturg, yozuvchi va shoirilarni o'ziga jalb qilgani kabi, tilshunoslarning ham e'tiborini tortib kelmoqda. Til birliklari qonunlariga ko'ra, "Pigmalion va Galateya" qanotli ibora

hisoblanadi va u o'z ijodiga o'ta muhabbat qo'ygan shaxsga nisbatan qo'llanadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, ushbu qanotli iboraning matnda qo'llanish xususiyatlari leksik-semantik va stilistik jihatdan o'rganilib, nutqni mazmundor, ta'sirchan va obrazli bo'lishidagi roli ochib beriladi.

Xulosa. Demak, ijodkorlarni ilhomlantira olgan, adabiyot va san'atni boyitishga ulkan xissa qo'shgan "Pigmalion va Galateya" afsonasi san'atning mukammalligi ramzi hisoblanadi. U qanotli ibora sifatida insonning o'z ijodiga, o'zi yaratgan idealiga bo'lgan muhabbatini tasvirlaydi, shuningdek, ijodkor o'z asarini real shaxsga aylantirib, jonlantirgan, ya'ni hayotga tatbiq etgan vaziyatni ifodalaydi. Mazkur qanotli ibora reallik va fantastika o'rtasidagi chegaralarni kesib o'tadigan, jonsizni hayotiy qila oladigan yoki oddiy narsalarni mukammallikka aylantira oladigan sevgining ijodiy kuchini namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Isakova G.N. Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir // FarDU. Ilmiy xabarlar. – Farg'ona, 2024-yil. 2-son. – B. 506-510.
2. Максимов С.В. Крылатые слова. – Москва, 1891; 2-е изд. – Москва, 1899; 3-е изд. – Москва, 1955; 4-е изд. – Красноярск: Кн. Изд-во, 1989. – 390 с.; Тимошенко И.Е. Литературные первоисточники и прототипы трехсотрусских пословиц и поговорок. – Киев: Типография П.Барского, 1897. – 174 с.
3. Михельсон М.И. Русская мысль и речь. Свое и чужое. Опыт русской фразеологии. Сборник образных слов и иносказаний. Т. 1. А-О. – СПб., 1902. – 779 с.; Т. 2. П-В. – СПб., 1903. – 580 с. Стер-тип. Изд-во Терра, 1994; Займовский С.Г. Крылатые слова. Справочник цитаты и афоризма. – Москва-Ленинград: Госиздат, 1930. – 493 с.
4. Ашукин Н.С., Ашукина М.Г. Крылатые слова: Литературные цитаты; Образные выражения. 4-е изд., доп. – Москва: Худож. лит., 1987; Бабкин А.М., В.В.Шендецов. Словарь иноязычных выражений и слов. – Ленинград: Наука, 1987; Берков В.П., Мокшенко В.М., Шулежкова С.Г. Большой словарь крылатых слов русского языка. – Москва: Русские словари, 2000. – 624 с.
5. Шулежкова С.Г. Крылатые выражения русского языка, их источники и развитие. – Москва: Азбуковник, 2002. – С. 19; Беркова О.В. Крылатые слова и проблемы их лексикографирования. Дисс... канд. филол. наук. – Ленинград: ЛГУ, 1991. – 161 с.
6. Isakova G.N. Fransuz tili qanotli so'zlarining semantik va stilistik xususiyatlari. Filol. fan. dok... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 78 b.
7. Ovide. Métamorphoses. Traduction de G.T.Villenave (1806). Edition de Ebooks libres gratuits, 2005. – 409 p.